

O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA SARGUZASHT-FANTASTIK ASARLARNING O'RNI

Mirsanova Moxira Xusniddin qizi, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lif fakulteti, "Boshlang'ich ta'lif" kafedrasida o'qituvchi

THE ROLE OF ADVENTURE-FANTASY WORKS IN UZBEK CHILDREN'S LITERATURE

Mirsanova Moxira Khusniddin qizi, Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute, Faculty of Preschool and Primary Education, Lecturer at the Department of "Primary Education"

РОЛЬ ПРИКЛЮЧЕНИЧЕСКО-ФАНТАСТИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В УЗБЕКСКОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Мирсанова Мохира Хусниддин кизи, Узбекско-Финляндский педагогический институт, Факультет дошкольного и начального образования, преподаватель кафедры "Начальное образование"



<https://orcid.org/0009-0005-9212-1807>

moxiramirsanova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek bolalar adabiyotida sarguzasht-fantastik asarlarning o'rni, fantastika janri taraqqiyoti, uning tarixiy elementlari, yosh avlod fantaziyasini o'stirishda fantastikaning o'rni, sarguzasht asarlar, bola tarbiyasi, bola kamolotida adabiyotning ta'siri, bolalar adabiyotida sarguzasht-fantastikaning uyg'unligi qay darajadaligi xususida, bundan tashqari Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" va Sa'dulla Qur'onovning "Galaktikada bir kun" asarlarida sarguzasht-fantastik talqin masalalari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: sarguzasht-fantastik asar, bola ruhiyati, tarbiya, fantaziya, sarguzasht, hayotiy voqe'a, o'zbek adabiyotida fantastik talqin.

Abstract: This article discusses the role of adventure-fantasy works in Uzbek children's literature, the development of the fantasy genre, its historical elements, the role of fantasy in nurturing the imagination of young generations, adventure works, child education, the influence of literature on a child's development, and the harmony of adventure-fantasy in children's literature. Additionally, it addresses the interpretation of adventure-fantasy issues in Xudoyberdi To'xtaboyev's "Riding the yellow monster" and Sa'dulla Qur'onov's "A day in the Galaxy".

Key words: adventure-fantasy work, child psychology, education, imagination, adventure, real-life events, fantastic interpretation in Uzbek literature.

Аннотация: В данной статье рассматриваются место приключенческо-фантастических произведений в узбекской детской литературе, развитие жанра фантастики, его исторические элементы, роль фантастики в развитии воображения молодого поколения, приключенческие произведения, воспитание детей, влияние литературы на развитие ребенка, степень гармонии

приключенческой фантастики в детской литературе, а также вопросы фантастической интерпретации в произведениях Худойберди Тохтабоева «Верхом на желтом диве» и Саъдуллы Куронова «Один день в галактике».

Ключевые слова: приключенческо-фантастическое произведение, психология ребенка, воспитание, воображение, приключение, реальные события, фантастическая интерпретация в узбекской литературе.

Kirish. O‘zbek adabiyoti o‘zining boy tarixi va mazmunan boy asarlari bilan milliy ma’naviyatni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Unda turli janrlarda yaratilgan asarlar orasida sarguzasht-fantastik janr alohida ahamiyatga ega. Bu janr o‘quvchilarning tasavvuri, ijodkorligi va qiziqish doirasini kengaytirishda muhim vosita hisoblanadi.

Tasavvurni rivojlantirib, Yosh kitobxonlarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantiradi. Qiziqishni oshiradi:

Sarguzashtli voqealar o‘quvchini kitobga bog‘laydi va undagi syujet rivojlanishiga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Har qanday asar syujet va kompozitsiya uyg‘unligidan tashkil topar ekan, asarning mazmuni, ijodkor niyati syujet bilan birga kompozitsiyada ham aks etadi. Shu bois ham Sa’dulla Quronovning “Galaktikada bir kun” asari kompozitsiyasi adabiyotshunoslar tomonidan turlicha talqin qilinishi mumkin. Ba’zilar S.Quronov sarguzasht-fantastik voqealar rivojiga urg‘u bergen desa, ba’zilar ilmiy faktlarga urg‘u berilgan deyishi mumkin. Adabiyotimizda fantastika unsurlari qachondan boshlab talqin qilingan? Sarguzasht asarlarchi? Bugungi bolalar adabiyotimizdagi rivoji qay darajada? Kabi savollarga javob qidiramiz. Biz ushbu maqolada sarguzasht-fantastik voqealar uyg‘unligi va bu yo‘nalishda yozilgan asarlar haqidagi mulohazalar va “Galaktikada bir kun” asarining tahlilidan kelib chiqib o‘z qarashimizni ma’lum qilmoqchimiz.

ASOSIY QISM.

Bugungi kunda o‘zbek adabiyotida T.Malik, X.Shayxov, M.Mahmudov, B.Xoshimxo‘jaev, M.Xidir, singari fantastik yozuvchilarimiz ijod qilib kelmoqdalar. Bu ijodkorlar qatoriga S.Quronovni ham kiritishimiz lozim. Chunki ustozlari qalamini mahkam tutib bu yo‘nalishda ajoyib durdona asarlar yaratmoqda. Taniqli adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev bu janr rivoji va S.Quronov haqida shunday deydi: “– Sa’dulla ziyoli oilada tug‘ilgani uchun unda ilmiy salohiyat yuqori edi... “Galaktikada

bir kun” kitobi orqali men uni bolalar adabiyotining namoyandası sıfatida kashf qildim, unda badiiy iqtidor borligini sezdim. Ilmiy-fantastik asar yozish uchun muallifda qunt, hafsala bo‘lishi kerak. Shuning uchunmi, adabiyotimizda bu turdagι asarlar yozuvchi Hojakbar Shayxov asarlaridan so‘ng biroz to‘xtab qolgan edi...[Qozoqboy Yo‘ldoshev, Yangi kitob Galaktikada bir kun, 2022]. S.Quronovning faoliyatiga, “Galaktikada bir kun” asariga va fantastik janr rivoji haqidagi bu fikrlar ijodkorning salohiyatiga yuqori baho deyish mumkin. Biz ushbu fikrlarimizni avvalo fantastik janr nima ekanligi, o‘zbek adabiyotidagi rivoji, o‘zbek adabiyotida fantastik unsurlar qachondan boshlanganligi haqidagi mulohazalar bilan davom ettiramiz.

Bundan tashqari sarguzasht uslubi ham adabiyotimizda ko‘p uchraydi. O‘zbek adabiyoti tarixiga nazar tashlasak sarguzasht voqealarga asoslangan asarlar talaygina. Xususan, “Xamsa” dostonlari sarguzasht voqealar tasvirining yorqin namunasi hisoblanadi. Ammo bu asarlar kattalar adabiyoti namunalari hisoblanadi. Biz alohida e’tibor qaratayotgan jihat bolalar adabiyotida sarguzasht-fantastik tasvir va ifoda shaklining uyg‘unlidir. To‘g‘ri fantastik element bolalar folklorida uchraydi, yoki sarguzasht voqealar ham. Yozma adabiyotimizdachi? Yozma adabiyotimizda ikkalasidan biri uchrashi mumkin. chunki adabiyot borki unda sarguzashtlar uchraydi. Yoki fantastika ham. Ammo ikkalasining uyg‘unligidagi bolalar adabiyoti durdonalari istiqlolgacha bo‘lganlari deyarli yo‘q. Bugungi kunda o‘zbek adabiyotida sarguzasht va fantastikaning uyg‘unligida yaratilgan asarlarimiz ham bisyor. Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” va “Sa’dulla Quronovning “Gallaktikada bir kun” asarları bu yo‘nalishda yozilgan ajoyib durdonalardir. Sarguzasht-fantastik asarlardagi badiiy xarakterlarning bugungi kun yoshlari uchun ibrat bo‘larli jihatlariga ham diqqat qilib, kerakli o‘rnarda tahlil qilmoq lozim.

Yuqorida tilga olingen ikki asar sarguzasht va fantastikaning uyg'unligiga asoslangan. Ba'zi asarlarda sarguzasht kuchli, ba'zilarida fantastika kuchli bo'ladi. Bu ikki asarda esa ikkalasi ham teng darajada. Shu sabab sarguzasht-fantastik yo'nalishni ikki yo'nalishning birlashishi desak adashmaymiz.

Bilamizki kichik maktab yoshidan o'qib kelgan oddiy ertaklarimizda ham qahramonlar uzoq safarlarga chiqqanligi, qiziqarli voqealarni boshidan kechirganligi kabi tasvirlarni guvohi bo'lamiz. Ba'zilarida qiziqarli hayotiy sarguzashtlar tasvirlansa, ba'zilarida sarguzasht voqealarga fantastik tasvir unsurlari qo'shiladi. Bolalar adabiyotida bunday asarlar xoh kichik hajimli ertak bo'lsin, xoh qissa yoki roman bo'lsin bolajonlar uchun eng sevimli asarlar sanaladi. Sarguzasht-fantastikaning muhim jihatni voqealar rivojida o'rni bilan fantastikani ham qollashdir. Bu o'rinda ijodkor mahorati juda muhim sanaladi. Xudoyberdi To'xtaboyev va Sa'dulla Quronovlar bu borada yuqorida tilga olingen ikki asarda ko'zlangan maqsadiga erishgan deya olamiz. "Sariq devni minib" va "Gallaktikada bir kun" asarlarida sarguzasht voqealar ham, fantastik tasavvurlar ham mahorat bilan ishlatilgan. Sa'dulla Quronovning "Gallaktikada bir kun" asari xususida so'z yuritadigan bo'lsak. Mazkur asar ilmiy-fantastik qissa bo'lib o'zining ajoyib-u g'aroyib voqealarni qiziqarli syujeti bilan bolalar adabiyotida munosib o'rnnini egallaydi. "Gallaktikada bir kun" asari mazmunan va shaklan qissaning talablariga javob beradi. Asardagi sarguzasht-fantastik voqealarni ilmiy faktlar bilan asoslashga harakat qilingan. Asar hozirgi ilm-fan va texnika jadal rivojlanayotgan asrda muhim ahamiyatga ega

Bu asarlar tahlili misolida o'zbek sarguzasht-fantastikasining yangi bosqichlarini o'rganishga harakat qilamiz. O'zbek kattalar adabiyotida fantastikaga asoslangan asarlar anchagina. Xusan, Hojiakbar Shayxovning "Olmos jilosi", "Alanga" qissalari va "Tutash olamlar" romanlarini ham alohida ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Bu asarlar fantastikaning ajoyib namunalari hisoblanadi [Shayxov X. 1979].

NATIJA VA MUHOKAMALAR.

Bir vaqtlar shunchaki ushalmas orzu bo'lgan "Uchar gilamlar" bugungi kunda samolyot bo'lib uchmoqda. S.Quronovning "Galaktikada bir kun" asarida keltirilgan "Xatosiz yozdiradigan ruchkalar",

"Bog'bon robot", "Bemorlarga qaraydigan hamshira robotlar", "Sayyoralararo uchar qurilma - Ko'kkezarlar" ajab emas dunyoga kelsa [S.Quronov, Gallaktikada bir kun, 2019]. Ijodkorning bu ilmiy-fantastik qissasida bu kabi kashfiyotlarni yana yuzlab uchratish mumkin.

Ma'lumki, «fantastika» so'zi «fantazion» - yunonchadan olingen bo'lib, fantaziya, xayolot, uydirma, bo'lмаган narsa, haqiqatdan uzoq, tafakkur va mushohadaning cheksizligi singari ma'nolarni ifodalaydi. Fantaziya tufayli buyuk ixtiolar, kashfiyotlar qilinadi, badiiy adabiyotda esa buyuk asarlar yaratiladi. Demakki, so'z bemaqsad, bema'no orzu haqida emas, balki, hayotiy asosga ega bo'lgan orzu, xayolot haqida bormoqda ekan. Bu esa o'z navbatida inson mehnati, insoniyatning butun yaratuvchanlik faoliyatini bilan bog'liqdir.

Yuqorida keltiirilgan fakt va sabablarning bari butun jahon miqqosida ilmiy-fantastikaga mislsiz qiziqishni vujadga keltirdi. Shu tariqa XX asr o'rtalariga kelib butun dunyoda fantastik adabiyot shiddat bilan rivojlana boshladi. Shunisi kishini mammun qiladiki, o'zbek adabiyoti ham bu jarayondan chetda qolgani yo'q. Biroz kechikib bo'lsa ham, ya'ni 60-yillarning oxiri va 70-yillarning boshlaridan ilmiy-fantastik janr o'zbek adabiyotida ham o'z qonuniyatlariga, o'z uslubiga ega bo'lgan mutlaqo mustaqil janr sifatida shakllana boshladi. Bugungi kunga kelib bu janrda ajoyib asarlar yaratilmoqda.

Sarguzasht asar tushunchasiga ham to'xtaladigan bo'lsak, fantastika ikkovi bir-birini taqozo qiladi, fantastik talqin bor joyda sarguzasht elementlari ham uchraydi. Aslida sarguzasht deb boshdan kechirilgan, voqealarga aytildi, biroq adabiy asardagi har qanday voqeani ham sarguzasht deyish mumkin emas. Sarguzasht asarda favqulotda qiziqarli voqealarni qiziqarli voqealarni, o'quvchini hayajonga soladigan tasvirlar, kechinmalar ko'p bo'ladi. Bunday asar kishini doim hayajonda ushlab turadi uni o'qiganingizda bu yog'i nima bo'larkin deya qiziqishingiz ortib boradi. Jahon adabiyotiga nazar tashlasak biz sevib o'qigan Jonatan Swiftning "Gulliverning sayohatlari", Daniel Defoning "Robinzon Kruzo", Jyul Vernning "O'n besh yoshli kapitan" kabi asarlarini ana shunday durdonalardandir. Yana bir asar amerikalik yozuvchi Andre Nortonning "Quyosh malikasi" deb nomlangan bir qator kitoblari ham bu yo'nalishda yozilgan. O'zbek adabiyotida Xudoyberdi

To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” va Sa’dulla Quronovning “Galaktikada bir kun” asarlari sarguzasht voqealar tasviri jihatidan alohida ahamiyatga ega. Ularda qahramonlar ko‘z ko‘rib qulqo eshitmagan voqelarni boshdan kechiradilar, mashaqqatli sinovlarga duch keladilar. Bunday yo‘nalishdagi asarlarda biroz mubolag‘a, birozgina fantastik tasvir ustunlik qilgani tufayli ularni kitobxonlar boshidan oxirigacha hayajon bilan o‘qydi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek adabiyotida sarguzasht-fantastik janr muhim o‘rin tutadi. Bu janr nafaqat yosh avlod, balki barcha kitobxonlar uchun qiziqarli va foydali. Kelajakda ham o‘zbek yozuvchilari ushbu janrda yangi va mazmunli asarlar yaratib, adabiyotimizni boyitishda davom etadi. O‘zbek fantastik adabiyotining shakllanishi, ildizlari, fantast yozuvchilar asarlardagi muammo qo‘yish masalasi tekshirilmoqda. Ushbu maqolamizda yozuvchi mahorati, asarlarda muammoning qo‘yilishi va uning badiiyatiga daxldor tafsilotlarga chuqur ahamiyat berish orqali yozuvchi erishgan yutuqlarni aniqlashga harakat qildik. O‘zbek adabiyotida fantastik janrning shakllanishi eng qadimgi davr yozma adabiyotdan boshlanib, asrlar osha rivojlanib bugungi kunda jahon adabiyoti durdonalaridan ta’sir olib sayqal topib bormoqda. Buning yorqin namunalari sifatida istiqlol davri bolalar adabiyotida Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” va Sa’dulla Quronovning “Galaktikada bir kun” asarlarini keltirsak arziyi. Xullas, sarguzasht-fantastika janrining badiiy imkoniyatlarini aniqlash, tahlil etish, yozuvchining mahorat sirlarini ochib berish adabiyotshunosligimizdagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Sarguzasht-fantastik asarlardagi badiiy xarakterlarning bugungi kun yoshlari uchun ibrat bo‘larli jihatlariga ham diqqat qilib, kerakli o‘rinlarda tahlil qilmoq lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M.. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent, O‘zbekiston, 2022-yil. 416-bet
2. To‘xtaboyev X. Sariq devni minib. Yangi asr avlod, T.: 2015, 540-bet
3. Quronov S. Gallaktikada bir kun, Akademnashr, T.: 2019, 160-bet
4. Ибрагимова Р. Жанр научной фантастики в узбекской советской литературе. Ташкент, Фан, 1987.
- 5.Худайбергенов Н. Шаклан янги, мазмунаничи? //Ўзбекистон маданияти Из. 1973, 9-февраль.
- 6.Шермухамедов П. «Энг қимматбаҳо нарса // Давр-қаҳрамон тақдирида китобида, Тошкент, 1976.
- 7.Шайхов Х. Илмийлик ва афсонавийлик муаммолари. Ўзбекистон маданияти газ. 1979, 13 июль.
- 8.Рахимов А. Қанотли хаёллар. Гулистон журн.1979, 7-сон.
9. Ibraximova R. Janr nauchnoy fantastiki v uzbekskoy sovetskoy literature. Fan, Toshkent, 1987.
10. XX asr o‘zbek adabiyoti (majmua). Toshkent, 1993, 260-b.
11. Sultonov I. Saylanma. Uch jildlik. Toshkent, 1982, 390-b.
12. Qo‘shtonov M. Saylanma. Ikki jildlik. Toshkent, 1983, 380-b.
- 13.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2007. 3- жилд. – 688 б.
14. Белинский В.Г. Адабий орзулар. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1977 йил. – 265 б.

